YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELII	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Latipova Shaxnoza Maxmudovna

SamISI "Moliya" kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "yashil" lizingning roli va uning moliyaviy mexanizmlari tadqiq etilgan. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida "yashil" lizing xizmatlari nafaqat moliyaviy vosita, balki ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm ekanligi asoslab berilgan. Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun energiya samaradorligining pastligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, innovatsion texnologiyalar ulushining kamligi, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning yetarli darajada faol ishtirok etmayotganligi kabi muammolarni bartaraf etishda "yashil" lizingdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada mamlakatimizda "yashil" lizingni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqaror iqtisodiy o'sish, yashil moliya, yashil lizing, energiya samaradorligi, ESG, investitsiyalar.

Abstract. This article examines the role of green leasing and its financial mechanisms in ensuring sustainable economic growth. At the current stage of economic development, it is substantiated that green leasing services are not only a financial instrument but also an important mechanism supporting environmental sustainability. To achieve sustainable economic growth, the article analyzes the potential of green leasing to address such issues as low energy efficiency, inefficient use of natural resources, a low share of innovative technologies, and insufficient participation of small businesses in the implementation of innovative solutions for the development of a green economy. The article also presents scientific and practical recommendations for the development of green leasing in our country.

Key words: sustainable economic growth, green finance, green leasing, energy efficiency, ESG, investments.

Аннотация. В данной статье исследуется роль зелёного лизинга и его финансовых механизмов в обеспечении устойчивого экономического роста. На современном этапе экономического развития обосновано, что услуги «зелёного» лизинга являются не только финансовым инструментом, но и важным механизмом, поддерживающим экологическую устойчивость. Для достижения устойчивого экономического роста проанализированы возможности использования «зелёного» лизинга для решения таких проблем, как низкая энергоэффективность, нерациональное использование природных ресурсов, низкая доля инновационных технологий, а также недостаточное участие малого бизнеса во внедрении инновационных решений для развития «зелёной» экономики. В статье разработаны научно-практические предложения по развитию «зелёного» лизинга в нашей стране.

Ключевые слова: устойчивый экономический рост, зелёные финансы, зелёный лизинг, энергоэффективность, ESG, инвестиции.

KIRISH

Global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy muvozanat uyg'unligini ta'minlashni talab etmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotning energiya intensivligi nisbatan yuqori, asosiy kapitalning muayyan qismi eskirgan hamda "yashil iqtisodiyotga o'tish" strategik vazifa sifatida belgilangan bir sharoitda investitsiyalarning ekologik yo'naltirilgan shakllarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitning joriy holatini tahlil qilish, yangi ekologik xavf-xatarlarning keskin ortib borishi fonida global va mintaqaviy ekologik muammolarning yuzaga kelishi aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi hamda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi



hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasining ishlab chiqilgani ushbu sohani moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Milliy iqtisodiyotda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida lizingdan foydalanish, xususan, "yashil" lizing turini joriy etish masalalari iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb mavzulardan biridir. Buning asosiy sababi sifatida nobank moliya institutlaridan biri bo'lgan lizing kompaniyalari faoliyatini zamonaviy texnologiyalar, jumladan, quyosh panellari va mini-gidroelektr stansiyalarni barpo etishga yo'naltirish hamda ulardan aholi va korxonalar tomonidan keng foydalanishni ta'minlash zarurati keltiriladi.

Ko'rinib turibdiki, hukumat oldida "yashil" moliyalashtirish doirasida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa korxonalar ekologik faoliyati bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini izlab topishni talab etadi. Ana shunday samarali moliyaviy mexanizmlardan biri "yashil" lizing hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Lizingga oid tadqiqotlar, shuningdek, mahalliy lizing bozori holati tahlili ushbu xizmat turidan mamlakatimizda yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko'rsatmoqda [1]. Mahalliy lizing bozorini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida uning yangi turlarini joriy etish hamda ularning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zarur. "Yashil" lizing aynan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiluvchi lizing turi sifatida rivojlangan mamlakatlarda tobora keng qo'llanilib kelinayotganini kuzatish mumkin [2].

Iqtisodiy adabiyotlarda "yashil" lizing ekologik xavfsiz texnika, uskuna va transport vositalarini maqsadli moliyalashtirish shakli sifatida talqin qilinib, u biznesni katta boshlang'ich xarajatsiz modernizatsiya qilish imkonini berishi ta'kidlangan [3].

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda so'nggi yillarda "yashil" lizing sohasidagi rivojlanishlar lizing beruvchi va lizing oluvchilarga tashkiliy amaliyotlarini o'zgartirish orqali ijara shartnomalari mexanizmi asosida ekologik maqsadlarga birgalikda erishish imkonini yaratishga qaratilgani qayd etilgan [4]. "Yashil" lizing, odatda, lizing shartnomasiga kiritilgan maxsus "yashil" bandlarga asoslanadi. Ushbu bandlar energiya samaradorligini oshirish hamda boshqa barqaror rivojlanish maqsadlarini hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari, mazkur atama xorijiy amaliyotda ko'pincha ko'chmas mulkni moliyalashtirish bilan bog'liq munosabatlarda qo'llanilgan. "Yashil" lizing atamasi ko'chmas mulk bozorida asosan 2007-yildan boshlab keng qo'llanila boshlagan. Shuningdek, "yashil" lizing tushunchasi lizing shartnomasi bilan bog'liq jarayonlar va yondashuvlarni ifodalab, tashkilot boshqaruvining barcha darajalarini (strategik, taktik va operatsion), shuningdek, binolarning hayotiy siklining ko'plab bosqichlarini qamrab oladi. U binolarni rivojlantirishdan tortib, ekspluatatsiya jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilishgacha bo'lgan jarayonlarni, ya'ni "yashil" ijara shartnomalarida belgilangan talablarni ham o'z ichiga oladi [5].

Ko'p qo'llaniladigan ta'riflardan yana biri Buyuk Britaniyada faoliyat yurituvchi binolar egalari hamkorligi — "Better Buildings Partnership" (BBP) tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning "Green Lease Toolkit" hujjatida bunday lizing shartnomasi quyidagicha ta'riflanadi: "Bu standart shakldagi lizing shartnomasi bo'lib, unga qo'shimcha bandlar kiritiladi. Ushbu bandlar orqali binolarning ekologik samaradorligini mulkdor va lizing oluvchilar tomonidan boshqarish va yaxshilash ta'minlanadi".

Mazkur hujjat yuridik kuchga ega bo'lib, uning qoidalari shartnoma muddati davomida amal qiladi. Ushbu qoidalar qatoriga binolarning ekologik samaradorligini oshirish bo'yicha maqsad va strategiyalarni muntazam ravishda kelishib olish, suv iste'molini kamaytirish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlar kiradi [6].

Ko'rinib turibdiki, xorijiy olimlar "yashil" lizing atamasiga ko'p hollarda ekologik qurilish va ko'chmas mulk nuqtayi nazaridan yondashganlar.

Rus olimlarining ushbu atamaga oid ilmiy tadqiqotlarini o'rganish jarayonida ular asosiy e'tiborni yashil moliyalashtirishga qaratganliklarini ko'rish mumkin [7]. Xususan, N.S. Melnikova boshchiligidagi iqtisodchilar tomonidan qishloq xo'jaligida "yashil" va moslashuvchan (adaptiv) lizingning qo'llanilishi, "yashil" transport sohasida lizingdan keng foydalanish, shuningdek, sanitar aviatsiya va transport sohalarida lizing vositalari orqali ijtimoiy muammolarni bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan [8].

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, "yashil" lizing — ekologik xavfsiz texnika va uskunalarini qarz munosabatlari asosida qo'lga kiritishga yo'naltirilgan moliyalashtirish shakllaridan biridir. Uning mohiyati korxonalarning zarur texnika va uskunalaridan (jumladan, ko'chmas mulk obyektlaridan) foydalanib, ularning qiymatini bosqichma-bosqich to'lab borishi, shuningdek, uglerod chiqindilarini kamaytirish hamda ekologik me'yoriarga rioya etish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "yashil" lizingning o'rni va imkoniyatlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, solishtirma (komparativ) tahlil, induktiv va deduktiv usullar qo'llanildi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasi (Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Janubiy Koreya) hamda milliy amaliyot asosida "yashil" lizing mexanizmlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil orqali energiya samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi va ekologik ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro standartlar (ESG tamoyillari), ilmiy maqolalar va amaliy ma'lumotlar manba sifatida qo'llanildi. Bundan tashqari, ekspert baholash usuli orqali lizing bozorining mavjud holati, uning muammolari hamda rivojlanish istiqbollari aniqlashtirildi. Olingan natijalar asosida "yashil" lizingni joriy etish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil" lizing — bu lizing shartnomasiga qo'shimcha "yashil" talablar va ekologik shartlarni kiritish orqali mulk egasi va lizing oluvchi o'rtasida energiya hamda resurs samaradorligini oshirishni nazarda tutuvchi moliyaviy mexanizmdir.

Bunday shartnomalarning quyidagi o'ziga xos jihatlari mavjud (1-rasm):



1-rasm. "Yashil" lizing shartnomasining o'ziga xos jihatlari¹

Garchi mamlakatimizda lizing munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilikda "yashil" lizing tushunchasiga izoh berilmagan va u lizingning alohida turi sifatida qayd etilmagan bo'lsa-da, Uzbek Leasing International A.O. aksiyadorlik jamiyati tomonidan GEFF (Green Economy Financing Facility) dasturi doirasida "yashil iqtisodiyot" loyihalarini moliyalashtirishda "yashil" lizing amaliyoti qo'llanilmoqda.

Mazkur dastur doirasida moliyalashtirish Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan mablag'lar asosida, belgilangan shartlarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Jumladan, moliyalashtirish summasi 300 000 AQSH dollarigacha bo'lgan loyihalar uchun (Yashil texnologiyalar selektorida keltirilgan ro'yxat asosida) avtomatik tarzda muvofiqlik belgilanadi. 600 000 AQSH dollarigacha bo'lgan loyihalarda esa texnik tahlil asosida lizing obyekti ajratiladi.

Ushbu loyiha bo'yicha lizing muddati 5-yilgacha, lizing ustamasi yillik 10% (belgilangan stavka), komissiya haqi 1,5%, garov ta'minoti esa kamida 50% miqdorida belgilanadi. Milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xususiy sektor korxonalari lizing oluvchilar sifatida ishtirok etishi mumkin [9].

"Yashil" iqtisodiyot loyihalarining maqbul ro'yxatiga onlayn "Yashil texnologiyalar selektori"da keltirilgan texnologiyalar kiradi. Jumladan, energiya samaradorligi yuqori bo'lgan va issiqxona gazlari chiqindilarining kamayishiga yoki energiya iste'molining kamida 20% ga qisqarishiga olib keladigan texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh panellari, quyosh energiyasi yordamida suv isitish tizimlari, shamol energiyasi, gidroenergiya va boshqa texnologiyalar, shuningdek, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi (kamida 20% tejamkorlikka olib keluvchi) hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiluvchi texnologiyalar ushbu ro'yxatga kiritilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida "yashil" lizing xizmatlari nafaqat moliyaviy vosita sifatida, balki ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida ham namoyon bo'lmoqda. An'anaviy moliyalashtirish vositalaridan farqli ravishda, "yashil" lizing — ayniqsa texnologik uskunalar, energiya tejamkor qurilmalar yoki ekologik toza transport vositalariga yo'naltirilgan holda — atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

1 Muallif ishonmasi.



Me'yoriy hujjatlarga muvofiq, O'zbekiston 2018-yilda Parij bitimini ratifikatsiya qilgan va qator majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan [10]. Ushbu majburiyatlarni bajarish jarayonida iqtisodiyotda mavjud ayrim muammolar barqaror rivojlanishning ustuvor maqsadlariga erishishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan, energiya samaradorligining pastligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanilmasligi, innovatsion texnologiyalar ulushining kamligi, shuningdek, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznesning yetarli darajada faol ishtirok etmayotganligi kabi muammolar mavjud.

Mazkur muammolarni hal etish uchun, avvalo, samarali va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiya qilish, shuningdek, tabiiy va energiya resurslaridan foydalanishda zamonaviy uskunalarni lizing asosida jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Shu bois, bugungi kunda an'anaviy lizingdan o'zining maqsad va vazifalari bilan farqlanuvchi "yashil" lizingga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Ko'plab davlatlar, xususan Yevropa Ittifoqi [11], Yaponiya [12] va Janubiy Koreya [13] kabi rivojlangan mamlakatlar ushbu yo'nalishda "yashil lizing" (green leasing)ni [14] joriy etish orqali ekologik xavfsiz loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirmoqda. Bu orqali lizing beruvchilar nafaqat texnik vositalarni, balki ekologik mas'uliyatni ham shakllantiruvchi moliyaviy modelni taklif etmoqda.

Bugungi ekologik muammolar, iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslarning cheklanganligi sharoitida moliyaviy sohaning barqarorlik tamoyillariga moslashuvi muqarrar hisoblanadi. Lizing ushbu o'zgarishlarga javob beruvchi hamda ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvlar bilan integratsiyalashishni ta'minlovchi muhim moliyaviy vositadir. U ekologik toza energiya manbalari (quyosh, shamol), energiya tejankor texnologiyalar (LED yoritgichlar, A++ toifadagi uskunalar) hamda chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini lizing asosida joriy etish imkonini kengaytiradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini inobatga olsak, ushbu yo'nalishda lizing xizmatlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur strategiya doirasida energiya samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlik ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [15]. Lizing esa ushbu maqsadlarga erishishda barqaror, innovatsion va samarali moliyaviy vosita bo'lib xizmat qilishi lozim.

O'zbekistonda "yashil" lizingni joriy etish kompleks jarayon bo'lib, tizimli yondashuv va aniq metodologiyani talab etadi. Buning uchun, avvalo, lizing faoliyati, ekologiya, ijtimoiy soha hamda korporativ boshqaruvni tartibga soluvchi amaldagi qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni chuqur o'rganish zarur. Shu bilan birga, bozor hajmi, segmentlar ulushi, asosiy ishtirokchilar hamda ularning ESG amaliyotini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mijozlarning ESG mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabi hamda ehtiyojlarini aniqlash, lizing beruvchi faoliyatida zarur resurslar (moliyaviy, mehnat va texnologik) mavjudligini baholash, ESG-lizingni joriy etishdagi asosiy cheklovlarni aniqlash muhimdir.

ESG-lizing atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni moliyalashtirish, ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash hamda ochiq boshqaruv tamoyillarini joriy etish orqali "yashil" iqtisodiyotga real hissa qo'shadi. Bu nafaqat ekologik samaradorlikni oshiradi, balki lizing oluvchilar uchun qo'shimcha imtiyozlar va yuqori barqarorlik reytinglariga erishish imkonini yaratadi.

Shu bois, mamlakatimizning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi nafaqat milliy barqarorlikni ta'minlashga, balki xalqaro standartlarga yaqinlashishga ham xizmat qiladi. Mazkur jarayonda moliyaviy mexanizmlar, xususan ESG-lizing xizmatlarining qo'llanilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan rasmiy strategiyalar bilan ESG-lizingning uyg'unlashuvi O'zbekistonning barqaror taraqqiyot yo'lini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlar asosida moliyaviy mexanizmlar, xususan ESG-lizing vositalarining kengaytirilishi ekologik jihatdan xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali kelajak uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Kelgusida ESG-lizing mexanizmlarining O'zbekistonda kengroq tatbiq etilishi nafaqat yirik korxonalar, balki kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatida ham barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan ESG tamoyillarini qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy baza kengaygani sari ushbu model asosida moliyalashtiriladigan loyihalar soni ortadi va bu iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining oshishiga olib keladi. ESG yondashuvining uzoq muddatli istiqbollari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun xalqaro reytinglarda ijobiy natijalarga erishish, xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Shunday qilib, ESG-lizing nafaqat bugungi iqtisodiy ehtiyojlarga javob beradi, balki kelajakdagi barqaror taraqqiyot uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, lizing shartnomasini tuzishda lizing oluvchini qiziqtiradigan asosiy masalalardan biri lizing obyektining likvidiligi hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilishda foydalaniladigan uskunalarining likvidlilik darajasi nisbatan past bo'lishi mumkin. Ushbu uskunalar bo'yicha ikkilamchi bozorning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli lizing beruvchi tomonidan qo'shimcha garov ta'minoti talab qilinishi ehtimoli mavjud.



Yana bir muhim sabablardan biri lizing shartnomasini rasmiylashtirish jarayonida hujjatlashtirishning murakkabligi hisoblanadi. Mulkni lizing asosida olishda lizing oluvchi tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim: lizing olish uchun ariza, lizing oluvchining anketasi, ustav, ta'sis shartnomasi, davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma, mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, barcha litsenziyalar nusxalari, so'nggi to'rt chorak bo'yicha moliyaviy hisobotlar (soliq organlari belgisi bilan), soliq qarzdorligining mavjud emasligi to'g'risidagi soliq organi ma'lumotnomasi, bankdagi barcha hisob raqamlari to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi, shuningdek, lizing oluvchining banklar oldida majburiyatlarining mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomalar va boshqalar.

Agar ushbu hujjatlarning barchasi lizing beruvchini qanoatlantirsa, ijobiy qaror qabul qilinadi. Shundan so'ng lizing shartnomasi, oldi-sotdi shartnomasi, zarur hollarda kredit shartnomasi hamda sug'urta shartnomasi tuziladi.

Mazkur jarayonning murakkabligi esa ayrim mijozlarning lizing xizmatlaridan foydalanishdan voz kechishiga sabab bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalishga aylanganligi sababli "yashil" lizingni joriy etish va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu sohani takomillashtirish uchun, avvalo, institutsional-huquqiy asoslarni mustahkamlash, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish hamda lizing bozori va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni joriy etish zarur. "Yashil" lizingni institutsional va huquqiy jihatdan takomillashtirish maqsadida milliy qonunchilikka "yashil" lizing tushunchasini kiritish, ESG va "yashil aktivlar" klassifikatsiyasini ishlab chiqish, lizing kompaniyalari uchun "yashil portfel" talablarini belgilash hamda lizing munosabatlarini "yashil" moliyaviy vositalar bilan integratsiyalash, jumladan, yashil obligatsiyalar, lizing instrumentlari va "yashil sukuk" mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash orqali "yashil" lizingni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda foiz stavkalarini subsidiyalash, soliq imtiyozlarini taqdim etish, tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmlarini joriy etish hamda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun maxsus moliyalashtirish liniyalarini yaratish zarur. Bundan tashqari, lizing bozori va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish orqali ham "yashil" lizingni takomillashtirish mumkin. Bu borada Xitoy tajribasidan kelib chiqib, lizing kompaniyalarida "yashil" bo'limlarni tashkil etish, quyosh panellari, energiya tejovchi uskunalar, elektr transport vositalari hamda suv tejash texnologiyalarini qamrab olgan "yashil" aktivlar bozorini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://uzbekleasing.uz/uz/about/news/6219/>
2. https://knowledge.uli.org/-/media/files/research-reports/2022/uli_teop_gll_final89.pdf
3. <https://greenleaseleaders.com/resource/green-lease-leaders-2026-outlook-report/>
4. Janda, K. B., Bright, S., Patrick, J., Wilkinson, S., & Dixon, T. J. (2016). The evolution of green leases: Towards inter-organisational environmental governance. <https://www.researchgate.net/publication/296623278>
5. <https://nva.sikt.no/registration/0198cc5ce434-b391cf11-7de8-4c67-874b-c9f81dadda5a>
6. Bugden, K., Botten, C., Staheli, J., Cross, S., & Highmore, S. (2013). Green Lease Toolkit. London: The Better Buildings Partnership.
7. Dudin, M. N., Shkodinskiy, S. V., & Kushnir, A. M. (2022). Predposilki rasshireniya zelenogo finansirovaniya i ESG-praktiki v rossiyskom bankovskom sektore. *Ekonomika, predprinimatelstvo i pravo*, 12(4), 1301–1322.
8. Melnikova, N. S., Bikanova, N. I., Xayrulina, I. G., Popov, S. E., & Pryadko, Ye. A. (2023). Tendensii razvitiya otechestvennogo rinka lizinga v Rossii pod vliyaniyem sanksiy. *Nauchnyy rezultat. Ekonomicheskkiye issledovaniya*, 9(4), 106–115.
9. <https://uzbekleasing.uz/uz/about/news/5050/>
10. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-oktyabrdagi "Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi O'RBQ-491-son Qonuni.
11. https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en
12. https://www.meti.go.jp/english/policy/energy_environment/global_warming/ggs2050/index.html
13. https://www.greenpolicyplatform.org/sites/default/files/cgpp_knowledge%20note%20series_01.pdf
14. <https://iclg.com/practice-areas/environmental-social-and-governance-law/usa>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
